Chiqindilarni qayta ishlash jarayonida moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligini texnologik jarayonlarning natijadorligi bilan bog'lagan U.U. Muzaffarov, D.B. Xoliqulov, A.R. Aripov va B.R. Voxidov [5] kimyo sanoati oqova suvlari va chiqindi eritmalardan og'ir rangli metallarni ajratib olish jarayonlarini chuqur tahlil qilgan. Ularning fikricha, sanoat oqova suvlari tarkibidagi metall komponentlarni samarali ajratib olish va ularni ikkilamchi xomashyo sifatida qayta foydalanish ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan birga, iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, aytish mumkinki, chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishda asosiy e'tibor innovatsion va yuqori samarali texnologiyalarni joriy etishga qaratilishi lozim. Mualliflar tomonidan asoslab berilgan kimyoviy cho'ktirish, neytrallash va laboratoriya reaktorlari asosidagi texnologiyalar investitsiyalarni resurs tejoychi yechimlarga yo'naltirish zarurligini ko'rsatadi.

Texnogen chiqindilarni iqtisodiy va texnologik samaradorlik nuqtai nazaridan baholagan M.A. Xoshimxanova, D.B. Irsaliyeva va S.O. Samatov [6] Angren issiqlik elektr stansiyasi chiqindilarini qayta ishlash texnologiyalarini tadqiq qilgan. Ularning fikricha, kul va shlak chiqindilari tarkibida rangli va nodir metallar mavjud bo'lib, ularni qayta ishlash orqali qimmatbaho komponentlarni ajratib olish mumkin. Mualliflarning ta'kidlashicha, texnogen chiqindilarni kompleks qayta ishlash nafaqat ekologik muammolarni kamaytiradi, balki yuqori iqtisodiy foyda ham keltiradi. Bu esa chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini moliyalashtirishda investitsion jozibadorlikni oshirish va mablag'larni aynan qayta ishlash texnologiyalariga yo'naltirish zarurligini ko'rsatadi.

Maishiy chiqindilarni qayta ishlash tizimini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar asosida rivojlantirish zarurligini S.B. Boboqulov va B.M. Imomov [7] alohida ta'kidlaydi. Ularning fikricha, chiqindilarni tashish, qayta ishlash va utilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish, innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda xizmat ko'rsatishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini rivojlantirish orqali samaradorlikni oshirish mumkin. Mualliflar chiqindilar hajmining ortib borishi, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va moliyaviy resurslarning cheklanganligini asosiy muammo sifatida ko'rsatadi. Shu bois ular davlat, xususiy sektor va aholi o'rtasidagi hamkorlikka asoslangan diversifikatsiyalashgan moliyalashtirish tizimini shakllantirish zarurligini ilgari suradi.

Chiqindi katalizatorlardan qimmatbaho metallarni ajratish usullarini tadqiq qilgan F.J. Tursanova va G.R. Bozorov [8] chiqindilarni qayta ishlashni iqtisodiy va ekologik samaradorlik nuqtai nazaridan muhim resurs sifatida baholaydi. Ularning fikricha, chiqindi katalizatorlar tarkibidagi kobalt va molibden kabi qimmatbaho metallarni qayta ishlash orqali ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan birga iqtisodiy samara olish mumkin. Mualliflar gidrometallurgik, gidrotermal va yuqori haroratli usullar orqali ushbu resurslarni ajratib olish mumkinligini asoslaydi. Bu esa moliyalashtirish mexanizmlarini shakllantirishda ekologik samaradorligi yuqori bo'lgan texnologiyalarga ustuvor ahamiyat berish lozimligini ko'rsatadi.

Chiqindilar bilan ishlash tizimini rivojlantirishda moliyalashtirish mexanizmlarining hal qiluvchi rolini R.I. Yabbarova [9] alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, chiqindilar bilan ishlash tizimining samarali faoliyat yuritishi davlat tomonidan moliyaviy resurslarni markazlashtirish va yagona standartlarni joriy etish orqali ta'minlanadi. Muallif chiqindilarni boshqarish tizimini moliyalashtirish federal byudjet, hududiy byudjetlar va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga amalga oshirilishini ko'rsatadi. Ayniqsa, byudjetdan tashqari mablag'larning ulushi yuqori bo'lishi investitsiyalarni jalb qilish muhimligini anglatadi. Shu sababli davlat qo'llab-quvvatlovi bilan bir qatorda xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish zarur hisoblanadi.

L.B. Leonova [10] chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini moliyalashtirish mexanizmlarini iqtisodiy jihatdan asoslash zarurligiga alohida urg'u beradi. Uning fikricha, chiqindilarni qayta ishlash sohasini rivojlantirish uchun davlat tomonidan ajratiladigan moliyaviy resurslar iqtisodiy optimal darajada bo'lishi kerak. Muallif chiqindilarni

zararsizlantirish va qayta ishlash xarajatlari ortib boruvchi xarakterga ega ekanligini va ularning optimal darajasi iqtisodiy hamda ekologik zarar o'rtasidagi muvozanat bilan belgilanadi, deb hisoblaydi. U davlat byudjeti, investitsiyalar, kredit resurslari hamda korxonalar mablag'larini asosiy moliyalashtirish manbalari sifatida e'tirof etadi.

Davlat va xususiy sektor hamkorligi hamda zamonaviy moliyaviy instrumentlarning ahamiyatini O.V. Kudryavtseva va S.V. Vasilev [11] alohida yoritadi. Ularning fikricha, chiqindilarni qayta ishlash sohasini samarali rivojlantirish uchun subsidiyalar, yashil obligatsiyalar, imtiyozli kreditlar va loyihaviy moliyalashtirish vositalari orqali uzoq muddatli kapitalga kirish imkoniyatini yaratish zarur. Mualliflar chiqindilarni qayta ishlash loyihalari nafaqat iqtisodiy rentabellik, balki ekologik va ijtimoiy samaradorlikni ham ta'minlashini asoslab beradi.

Investitsion muhitni yaxshilash va davlat qo'llab-quvvatlashining zarurligini E.I. Shamanina va I.S. Arshinskaia [12] o'rganib, chiqindilarni qayta ishlash va utilitatsiya qilish sohasiga investitsiyalarni jalb etish uchun qonunchilik bazasini takomillashtirish, soliq yukini kamaytirish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, moliyalashtirish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi ushbu sohaning asosiy muammolaridan biridir.

D.B. Kovalin, Yu.V. Zinchenko va boshqalar [13] ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlashni iqtisodiy manfaatdorlik nuqtai nazaridan baholab, resurslardan qayta foydalanish qo'shimcha daromad manbai ekanligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini samarali moliyalashtirish uchun texnologik infratuzilmani rivojlantirish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va bozorda qayta ishlangan mahsulotlarga talabni oshirish zarur.

Furkan Ahmad va uning hammualliflari [14] yashil moliya instrumentlarining ekologik loyihalarni moliyalashtirishdagi rolini alohida ta'kidlaydi. Ularning fikricha, *green bonds*, *green loans* va boshqa yashil moliyaviy vositalar orqali ekologik loyihalarga kapital jalb etish barqaror rivojlanishni ta'minlaydi va chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Zixuan Yang, Huang Yu va Jingqiu Zhang [15] yashil moliya ekologik infratuzilma va chiqindilarni qayta ishlash kabi yo'nalishlarga moliyaviy resurslarni yo'naltirish orqali ekologik barqarorlikni oshirishini asoslaydi. Ularning fikricha, yashil kreditlar va obligatsiyalar ifloslantiruvchi tarmoqlar uchun moliyalashtirish xarajatlarini oshirib, ekologik toza texnologiyalarni rag'batlantiradi.

Sen Yang va Jiawei Xu [16] ilmiy-texnologik moliya siyosatini yashil iqtisodiyotning asosiy omillaridan biri sifatida baholab, moliyaviy resurslarni yashil innovatsiyalar va ekologik loyihalarga yo'naltirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, bu siyosat chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

John Bain, Emmanuella Akosua Appiah va Flavio Odoi-Yorke [17] ekologik loyihalarni moliyalashtirishda innovatsion moliyaviy mexanizmlar va institutsional qo'llab-quvvatlash muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Ularning fikricha, yuqori boshlang'ich xarajatlar va moliyaviy mexanizmlarning yetarli emasligi investitsiyalarni jalb qilishga asosiy to'siq bo'lib, davlat-xususiy sheriklik, mikromoliyalashtirish va fintech yechimlari ushbu muammoni hal etishda samarali vosita hisoblanadi.

Ushbu adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot sharoitida chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini moliyalashtirish mexanizmlari ko'p qirrali va kompleks tizim bo'lib, ular davlat byudjeti, xususiy investitsiyalar, yashil obligatsiyalar, subsidiyalar, loyihaviy moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklik va innovatsion moliyaviy instrumentlar orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, moliyalashtirish samaradorligi resurslarni diversifikatsiya qilish, ekologik va iqtisodiy samaradorlikni uyg'unlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda investitsion jozibadorlikni oshirish bilan bevosita bog'liq hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda yashil iqtisodiyot sharoitida chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ilmiy va amaliy jihatdan o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil, statistik kuzatuv, tizimli yondashuv hamda umumlashtirish usullariga asoslandi. Tadqiqot jarayonida mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, yashil moliya, ekologik investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik va loyihaviy moliyalashtirishga oid nazariy qarashlar tahlil qilindi. Shuningdek, rivojlangan davlatlar tajribasi va O'zbekiston amaliyoti solishtirilib, chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini moliyalashtirishdagi mavjud muammolar va imkoniyatlar aniqlandi. Statistik ma'lumotlar asosida investitsiyalar hajmi, qayta ishlash darajasi, davlat subsidiyalari va xususiy sektor ishtiroki baholandi. Natijada yashil iqtisodiyot talablariga mos ravishda samarali moliyalashtirish mexanizmlarini shakllantirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyot sharoitida chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini moliyalashtirish mexanizmlari iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ushbu sohani tizimli rivojlantirish, investitsion jozibadorligini oshirish va zamonaviy moliyalashtirish instrumentlarini joriy etishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-martdagi "Chiqindilarni qayta ishlash sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-56-sonli Farmoni chiqindilarni boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish va kompleks yondashuv asosida rivojlantirishni nazarda tutadi.

Mazkur Farmonda chiqindilarni qayta ishlash sohasida investitsiyalarni keng jalb qilish, ekosanoat zonalarini tashkil etish, chiqindilarni qayta ishlash darajasini oshirish va poligonlarga tushadigan yuklamani kamaytirish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan. Bu esa, o'z navbatida, moliyalashtirish mexanizmlarining turli shakllarini qo'llashni talab etadi. Xususan, davlat budjeti mablag'lari, xususiy investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar, shuningdek, xalqaro moliya institutlari resurslarini jalb etish orqali chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Farmonda ekosanoat zonalarining tashkil etilishi alohida e'tiborga loyiq bo'lib, ular chiqindilarni qayta ishlash, utilizatsiya qilish va qayta foydalanish jarayonlarini yagona hududda tashkil etishga xizmat qiladi. Bu zonalarda investitsiya loyihalari amalga oshirilishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi, jumladan, yer uchastkalarini aukcion orqali taqdim etish, infratuzilmani davlat tomonidan rivojlantirish va investorlar uchun preferensiyalar berish kabi mexanizmlar nazarda tutilgan.

Shuningdek, chiqindilarni qayta ishlash orqali muqobil energiya ishlab chiqarish imkoniyatlari ham muhim iqtisodiy omil sifatida qaraladi. Bu jarayonda ishlab chiqarilgan energiyani sotish mexanizmlari, tarif siyosati va energiya tarmoqlariga ulanish imkoniyatlari moliyalashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, investitsion loyihalar uchun minimal qiymat belgilanishi, loyihalarni tanlash jarayonining shaffofligi va davlat tomonidan muvofiqlashtirish tizimining joriy etilishi ushbu sohada moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi. Natijada chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini moliyalashtirish mexanizmlari ko'p qirrali tizimga ega bo'lib, u davlat siyosati, bozor mexanizmlari va innovatsion yondashuvlarning uyg'unlashuvi asosida shakllanadi. Quyidagi jadvalda ushbu mexanizmlar tizimli ravishda aks ettirilgan (1-jadval).

1-jadval

Chiqindilarni qayta ishlashni moliyalashtirish mexanizmlari (PF-56-sonli Farmon asosida)

Yo'nalish	Mazmuni	Moliyalashtirish mexanizmi	Kutilayotgan natija
Ekosanoat zonalarini tashkil etish	Poligon hududlarida maxsus zonalar tashkil etish	Davlat va xususiy investitsiyalar, aukcion orqali yer ijarasi	Investitsiya oqimi oshadi
Infratuzilma rivojlantirish	Yo'l, elektr, kommunikatsiya tarmoqlari qurilishi	Davlat budjeti va maxsus fond mablag'lari	Loyihalarning samaradorligi oshadi
Investitsiya loyihalari	\$3 mln dan yuqori loyihalarni jalb qilish	To'g'ridan-to'g'ri muzokaralar va investor paketlari	Yirik investorlar jalb qilinadi
Muqobil energiya ishlab chiqarish	Chiqindidan energiya olish	Xususiy investitsiyalar va tarif siyosati	Energiya samaradorligi oshadi
Davlat qo'llab-quvvatlashi	Subsidiyalar va preferensiyalar	"Chiqindini qayta ishlash investori" paketi	Korxonalar uchun qulay muhit yaratiladi

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlar chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini moliyalashtirish mexanizmlarining kompleks va tizimli xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Eng avvalo, ekosanoat zonalarining tashkil etilishi ushbu sohada investitsiyalarni jalb qilishning asosiy vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu zonalar orqali chiqindilarni qayta ishlash jarayonlari markazlashadi va ishlab chiqarish samaradorligi oshadi. Shu bilan birga, yer uchastkalarini ijaraga berish orqali qo'shimcha moliyaviy resurslar shakllanadi.

Infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham moliyalashtirish tizimining muhim elementi hisoblanadi. Chunki har qanday ishlab chiqarish faoliyati samarali ishlashi uchun muhandislik-kommunikatsiya

tarmoqlari rivojlangan bo'lishi zarur. Davlat tomonidan ushbu yo'nalishda mablag' ajratilishi investitsiya loyihalarining amalga oshirilish xavfini kamaytiradi va ularning jozibadorligini oshiradi.

Investitsiya loyihalarini jalb qilish mexanizmlari esa moliyalashtirish tizimining markaziy bo'g'ini hisoblanadi. Yirik loyihalarning to'g'ridan to'g'ri muzokaralar asosida tanlab olinishi investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, xorijiy kapital oqimini oshiradi va texnologik yangilanish jarayonlarini tezlashtiradi.


Muqobil energiya ishlab chiqarish yo'nalishi ham alohida ahamiyatga ega. Chiqindilarni qayta ishlash orqali energiya olish nafaqat ekologik muammolarni kamaytiradi, balki qo'shimcha iqtisodiy qiymat yaratadi. Bu jarayonda tarif siyosati va energiya bozoriga kirish imkoniyatlari muhim rol o'ynaydi. Agar ushbu mexanizmlar to'g'ri yo'lga qo'yilsa, chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini uchun barqaror daromad manbai shakllanadi.

Davlat tomonidan beriladigan imtiyoz va preferensiyalar esa moliyalashtirish tizimining rag'batlantiruvchi omili sifatida xizmat qiladi. Subsidiyalar, soliq imtiyozlari va boshqa qo'llab-quvvatlash choralarining mavjudligi investorlar uchun xavflarni kamaytiradi va ularning faoliyatini kengaytirishga undaydi. Shu bilan birga, bu mexanizmlar kichik va o'rta biznes subyektlarining ham ushbu sohada faol ishtirok etishiga imkon yaratadi.

Chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini ko'pincha yuqori boshlang'ich investitsiyalarni, zamonaviy texnologik uskunalarni, saralash infratuzilmasini, logistika tizimini va ekologik standartlarga mos ishlab chiqarish jarayonlarini talab qiladi. Bunday xarajatlar korxonalarining moliyaviy yukini oshiradi. Shu bois moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Davlat byudjeti mablag'lari, maqsadli jamg'armalar, xalqaro grantlar, tijorat banklari kreditlari, xususiy investitsiyalar va yashil obligatsiyalar ushbu tarmoqning barqaror rivojlanishida asosiy moliyaviy tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligi loyihalarni tanlash, baholash, xavflarni boshqarish, kafolat va sug'urta tizimlarini joriy etish, soliq imtiyozlari berish hamda natijaga yo'naltirilgan moliyaviy nazoratni tashkil etish bilan belgilanadi. Ayniqsa, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy mezonlarga asoslangan loyiha tanlovi moliyaviy resurslarning maqsadli va samarali ishlatilishini ta'minlaydi. Chiqindilarni qayta ishlash loyihalari nafaqat foyda olish, balki ekologik zararlarni kamaytirish, aholining ekologik madaniyatini oshirish va yashil ish o'rinlarini yaratish nuqtayi nazaridan ham baholanishi lozim.

Mazkur tizimda moliyaviy instrumentlar alohida o'rin tutadi. Kreditlar, subsidiyalar, grantlar, aksiyadorlik asosidagi moliyalashtirish, lizing, yashil obligatsiyalar va karbon kreditlari chiqindilarni qayta ishlash korxonalarining investitsion imkoniyatlarini kengaytiradi. Ular orqali korxonalar texnologik modernizatsiya, ishlab chiqarish quvvatini oshirish va ekologik talablarni bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada moliyaviy oqimlar chiqindilarni qayta ishlash jarayoniga yo'naltirilib, barqaror moliyaviy faoliyat, ekologik muvozanat va yashil iqtisodiyot rivojiga xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Yashil iqtisodiyot sharoitida chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini moliyalashtirish mexanizmlari



Chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini moliyalashtirish tizimi yashil iqtisodiyotning amaliy moliyaviy infratuzilmasini shakllantiradi. Ushbu tizimning asosiy afzalligi shundaki, unda moliya manbalari, boshqaruv mexanizmlari, moliyaviy instrumentlar va kutiladigan natijalar o'zaro uzviy bog'langan holda qaraladi. Bu esa chiqindilarni qayta ishlash sohasini tasodifiy yoki qisqa muddatli moliyaviy yordamga emas, balki tizimli, barqaror va natijaga yo'naltirilgan moliyalashtirish modeliga asoslash imkonini beradi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, mazkur sohada davlatning ishtiroki muhim boshlang'ich omil hisoblanadi. Chunki chiqindilarni qayta ishlash loyihalari ko'pincha ijtimoiy va ekologik samara beradi, ammo ularning moliyaviy qaytimi ba'zan uzoq muddatda namoyon bo'ladi. Shu sababli davlat byudjeti, maqsadli jamg'armalar, soliq imtiyozlari va kafolat mexanizmlari xususiy investorlar uchun rag'batlantiruvchi muhit yaratadi. Xususiy sektor esa kapital, innovatsiyalar, boshqaruv tajribasi va bozor mexanizmlarini olib kiradi.

Moliyaviy instrumentlarning xilma-xilligi ham tizim samaradorligini oshiradi. Masalan, kredit va lizing ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga xizmat qilsa, grant va subsidiyalar ekologik ahamiyatga ega loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi. Yashil obligatsiyalar va karbon kreditlari esa chiqindilarni qayta ishlash tarmog'ini zamonaviy moliya bozorlari bilan bog'laydi. Bunday yondashuv korxonalarini faqat bank kreditlariga qaram qilib qo'ymasdan, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Shuningdek, loyihalarni tanlash va baholash mexanizmi alohida ahamiyatga ega. Agar moliyalashtirish ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy mezonlar asosida amalga oshirilsa, mablag'lar eng samarali loyihalarga yo'naltiriladi. Xavflarni boshqarish, sug'urta, kafolat va monitoring tizimlari esa moliyaviy yo'qotishlar ehtimolini kamaytiradi. Bu nafaqat investorlar ishonchini oshiradi, balki korxonalar faoliyatining shaffofligini ham ta'minlaydi.

Umuman olganda, chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini moliyalashtirish mexanizmlari yashil iqtisodiyotda ekologik maqsadlar bilan iqtisodiy manfaatlarni uyg'unlashtiradi. Natijada chiqindilar hajmi kamayadi, ikkilamchi xomashyo bozori rivojlanadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va korxonalar raqobatbardoshligi ortadi. Eng muhimi, bu tizim iqtisodiyotning resurs tejovchi, ekologik mas'uliyatli va uzoq muddatli barqaror rivojlanish modeliga o'tishini jadallashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yashil iqtisodiyot sharoitida chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish ekologik barqarorlikni ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada chiqindilarni qayta ishlash sohasining iqtisodiy va ekologik ahamiyati, uni moliyalashtirishning mavjud manbalari, zamonaviy moliyaviy instrumentlar hamda xalqaro tajribalar tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ushbu sohani rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini kengaytirish va diversifikatsiya qilish zarurligi aniqlandi.

Mavzuga doir o'rganilgan yondashuvlar asosida quyidagi takliflar ilgari surildi:

- Yashil moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish. Chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida "yashil obligatsiyalar", ekologik fondlar va maxsus kredit liniyalarini joriy etish hamda ularning hajmini oshirish zarur;
- Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarini kuchaytirish. Soliq imtiyozlari, subsidiyalar, grantlar va davlat kafolatlari asosida kreditlash tizimini kengaytirish orqali korxonalar uchun qulay investitsion muhit yaratish lozim;
- Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish. Chiqindilarni qayta ishlash sohasida DXSh loyihalarini keng joriy etish orqali xususiy investorlarni jalb qilish, infratuzilmani rivojlantirish va moliyaviy xavflarni kamaytirish maqsadga muvofiq;
- Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa donor tashkilotlarning grantlari, imtiyozli kreditlari hamda texnik yordam dasturlaridan samarali foydalanish zarur;
- "Ifloslantiruvchi to'laydi" tamoyilini keng joriy etish. Atrof-muhitga zarar yetkazuvchi subyektlar uchun ekologik to'lovlar va kompensatsiya mexanizmlarini kuchaytirish orqali qo'shimcha moliyaviy resurslarni shakllantirish mumkin;
- Innovatsion texnologiyalarni moliyalashtirishni rag'batlantirish. Chiqindilarni qayta ishlash jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etuvchi loyihalarni ustuvor ravishda moliyalashtirish va ular uchun alohida imtiyozlar yaratish zarur;
- Moliyaviy monitoring va shaffoflikni oshirish. Ajratilayotgan mablag'larning maqsadli sarflanishini nazorat qilish, hisobot tizimini takomillashtirish va ochiqlikni ta'minlash investorlar ishonchini mustahkamlaydi;
- Aholi va tadbirkorlar o'rtasida ekologik ongini rivojlantirish. Chiqindilarni saralash va qayta ishlashga bo'lgan talabni oshirish orqali ushbu sohada iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish mumkin.

Umumiy qilib aytganda, chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish kompleks yondashuvni talab etadi. Davlat siyosati, xususiyl sektor faolligi, xalqaro hamkorlik va innovatsion moliyaviy vositalarning uyg'unlashuvi ushbu yo'nalishda yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng joriy etish, ekologik muammolarni kamaytirish va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi "Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/6732832>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-martdagi "Chiqindilarni qayta ishlash sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-56-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/7445858>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-213-sonli Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/6956101>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 25-martdagi "Yashil makon" umummilliy loyihasi samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-47-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/8101199>
5. Muzaffarov U.U., Xoliqulov D.B., Aripov A.R., Voxidov B.R. Kimyo sanoati oqova suvlari va chiqindi eritmalardan og'ir rangli metallarni cho'ktirishning tadqiqot usullari // "Muhandislik va iqtisodiyot" ilmiy-amaliy jurnali. 2026. № 1. Yanvar. 763–766-betlar.
6. Xoshimxanova M.A., Irsaliyeva D.B., Samatov S.O. Angren issiqlik elektr stansiyasi texnogen chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasining tadqiqotlari // Chemical Technology and Construction ("Sanoatda raqamli texnologiyalar"). 2025. Vol. 3, № 2. 188–191-betlar.
7. Boboqulov S.B., Imomov B.M. Maishiy chiqindilarni tashish va qayta ishlashning ahamiyati // Journal of Marketing, Business and Management (JMBM). 2024. Vol. 2, Issue 9. January.
8. Tursunova F.J., Bozorov G.R. Chiqindi AKM katalizatorlardan kobalt va molibdenni ajratish usuli // "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali. 2024. Maxsus son. Iyun–iyul. 174–178-betlar.
9. Яббарова Р.И. Экономика замкнутого цикла в сфере обращения с отходами: порядок и результаты финансирования // Юг России: экология, развитие. 2024. Т. 19. № 1. С. 145–150.
10. Леонова Л.Б. Концептуальные и экономические основы стратегического управления твердыми отходами производства и потребления // Современные исследования социальных проблем (электронный научный журнал). 2015. № 9 (53).
11. Кудрявцева О.В., Васильев С.В. Механизмы финансирования проектов в сфере обращения с отходами // Russian Journal of Economics and Law. 2025. Т. 19. № 4. С. 799–825.
12. Шаманина Е.И., Аршинская И.С. Проблемы инвестирования в предприятия по переработке и утилизации твердых коммунальных отходов // Вестник университета. 2022. № 1. С. 124–129.
13. Кувалин Д.Б., Зинченко Ю.В., Лавриненко П.А., Ибрагимов Ш.Ш., Зайцева А.А. Российские предприятия весной 2023 г.: преодоление санкционного кризиса и усиление инвестиционной активности // Проблемы прогнозирования. 2024. № 1. С. 217–232.
14. Ahmad F., Boumaiza A., Sanfilippo A., Al-Fagih L. A Comprehensive Review on Green Finance and Its Impact on Net Zero Energy Transition: From the Perspective of Renewable Energy Development // Energy Strategy Reviews. 2025. Vol. 62.
15. Yang Z., Yu H., Zhang J. Mechanisms of Green Finance Enhancing Urban Ecological Resilience: Leveraging Green Innovation Diffusion and Digital Financial Network // Journal of Innovation & Knowledge. 2026. Vol. 16.
16. Yang S., Xu J. Science and Technology Finance Policy and Inclusive Green Growth in Cities // International Review of Economics and Finance. 2026. Vol. 108.
17. Bain J., Appiah E.A., Odoi-Yorke F. Advancing Solar Energy Financing in Sub-Saharan Africa: A Systematic Review of Trends, Progress, and Pathways to Sustainable Development // Solar Energy Advances. 2026. Vol. 6.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100